



THE INFLUENCE OF DIFFERENT METHODS OF SOIL TILLAGE ON THE HEIGHT OF WINTER WHEAT

Q/X.F.F.D., K.I.X. **Uzakov Gulomjon Oqbutayevich,**
Junior Research Fellow Tilavov Ural Khusanovich
Junior Research Fellow Chariev Shakhbos Mardonovich
Southern Research Institute of Agriculture

Article history:	Abstract:
Received: 11 th September 2025 Accepted: 8 th October 2025	The article discusses the sowing of winter wheat seeds in different ways on light gray soils of the Kashkadarya region after summer green manure and the effect on plant height. Analysis of the experimental results showed that plant height varied depending on soil cultivation. Compared with zero tillage, plant height increased with soil plowing.

Keywords: green manure, mung bean, winter wheat, variety, Shukrona, sowing methods, option, plant height.

TUPROQQA TURLI USULLARDA ISHLOV BERISHNING KUZGI BUG'DOY BO'YI BALANDLIGIGA TA'SIRI

Q/X.F.F.D., k.i.x. **Uzaqov G'ulomjon Oqbutayevich,**
Kichik ilmiy xodim Tilavov O'ral Xusanovich
Kichik ilmiy xodim Chariev Shaxbos Mardonovich
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida yozgi siderat va kuzgi bug'doy urug'larini turli usullarda ekish va yozgi siderat ekinlarining kuzgi bug'doy o'simliklari bo'yiga tasiri yoritilgan. Olib borilgan tajribalar natijalar tahliliga ko'ra o'simliklar bo'yining balandligi tuproqqa ishlov berilishiga bog'liq holda o'zgarib borgan. Tuproqqa nol ishlov berilganga nasbatan tuproq shudgorlanib urug'lar ekilganda o'simliklar bo'yi yuqori bo'lishiga olib kelgan.

Kalit so'zlar: siderat, mosh, kuzgi bug'doy, nav, Shukrona, ekish usullari, variant, o'simlik bo'yi.

Аннотация. В статье рассматривается после летних сидератов посев семян озимой пшеницы различными способами на светлых сероземах Кашкадарьинской области и влияние на высоту растений. Анализ результатов опытов показал, что высота растений варьировала в зависимости от обработки почвы. По сравнению с нулевой обработкой почвы, высота растений увеличивалась при вспашке почвы.

Ключевые слова: сидераты, маш, озимая пшеница, сорт, Шукрона, способы посева, вариант, высота растений.

Dolzarbligi. Tuproq unumdorligini oshirish yoki saqlab qolish uchun muntazam ravishda ozuqa moddalari qo'shilishi kerak. Shu maqsadda mineral, organik o'g'itlardan foydalanishingiz yoki yashil ўғитни etishtirish mumkin.

Yashil o'g'itlar - tuproqdagi chirindi darajasini oshirish uchun tuproqqa keyingi shudgorlash yoki kompostlash uchun etishtiriladigan ekinlar. Bularga tez o'sadigan o'simliklar o'rilib, tuproq yuzasida qoldiriladigan yoki tuproqqa shudgorlash asosida kiritiladigan ekinlardir. Yer osti qismi, chiriganidan keyin, foydali birikmalar bilan tuproqni to'ydiradi.

Yashil ўғитни yetishtirish tuproqni makro va mikroelementlar, xususan, azot bilan boyitishga yordam beradi. Turli o'simliklar tuproqning mexanik tarkibiga ham ta'sir qiladi. Og'ir gil tuproqlar namlik va havo almashinuvini yaxshilashga yordam beradigan kuchli ildiz tizimiga ega bo'lgan ekinlarni etishtirish orqali yumshatilishi mumkin. Dukkakli don oilasida o'simliklar tuproqni zararkunandalardan xalos bo'lishga yordam beradi. Yashil massaga ega o'simliklar tuproq yuzasini kuyliruvchi quyosh nurlaridan himoya qiladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tuproqqa siderat ekin ekish va yashil o'g'itni kiritish keyingi ekinning begona o'tlar bilan zararlanishini kamaytiradi [1] va asosiy ekinning somon va ildiz qoldiqlari bilan birgalikda foydalanish uning mahsuldorligini oshiradi [2, 3] va agrokimyoviy [4] va agrofizikaviy xususiyatlarini yaxshilaydi [5].

Tadqiqot maqsadi. Respublikaning janubiy mintaqalari tuproq-iqlim sharoitlarida kompleks ishlov berish orqali tuproq unumdorligini oshirishning agrotexnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti markaziy tajriba xo'jaligida olib borilgan. Dala tajribalarida kuzgi yumshoq bug'doyning Shukrona navini yetishtirishda turli ekish usullari va yozgi siderat ekini (mosh)ning ekish usullari qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalari. Qishloq xo'jalik ekinlarining eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu o'simlik bo'yi hisoblanadi. Chunki o'simliklar bo'yining meyor darasidan yuqori bo'lishi yotib qolishga chidamlilik darajasi pasaytiradi yoki o'simlik bo'yining juda past bo'lishi o'rim yig'imni qiyinlashishiga va hosildorlikni past bo'lishiga olib keladi.

Olib borilgan tajribada yozgi siderat sifatida mosh ekini ekilib, hosil bo'lgan ko'k massa tuproqqa aralastirib, keyin kuzgi bug'doy urug'i taproqqa turli xil usulda ishlov berib ekilganda bug'doy o'simligining bo'yiga tasiri taxlil qilindi.

Olib borilgan o'lchash va tahlil natijalariga ko'ra kuzgi yumshoq bug'doyning Shukrona navi o'simligining bo'yi variantlar bo'yicha 115.7 sm.dan 125.3sm.ni tashkil qildi.

Tuproqqa turli xil usulda ishlov berilganda kuzgi bug'doy o'simligi bo'yi balndligiga tasiri.

Variantlar	O'simlik bo'yi, sm (O'rim-yig'im oldidan)			
	1-qay	2-qay	3-qay	o'rtacha
2. Nazorat+ No-till Kuzgi bug'doy	115,7	120,8	116,3	117,6
3. Nazorat+ Full-till Kuzgi bug'doy	121,8	120,7	118,6	120,4
4. No-till Yozgi siderat (mosh)+ No -till kuzgi bug'doy	118,4	116,4	120,7	118,5
5. No-till Yozgi siderat (mosh)+ Full-till kuzgi bug'doy	120,5	124,2	125,4	123,4
6. Full -till Yozgi siderat (mosh)+ No -till kuzgi bug'doy	119,8	124,3	120,3	121,5
7. Full -till Yozgi siderat (mosh)+ Full-till kuzgi bug'doy	122,4	125,3	125,2	124,3

O'simliklar bo'yining eng past ko'rsatkichi . Nazorat+ No-till Kuzgi bug'doy variantida kuzatilib o'rtacha qaytariqlar bo'yicha 117.6 sm.ni tashkil qilgan bo'lsa, tajribaning to'rtinchi No-till Yozgi siderat (mosh)+ No -till kuzgi bug'doy variantida 118.5 sm.ni, Nazorat+ Full-till Kuzgi bug'doy variantida 120.4 sm, Full -till Yozgi siderat (mosh)+ No -till kuzgi bug'doy variantida esa 121.5sm.ni tashkil qilgan bo'lsa eng yuqori ko'rsatkich No-till Yozgi siderat (mosh)+ Full-till kuzgi bug'doy va Full -till Yozgi siderat (mosh)+ Full-till kuzgi bug'doy variantlarida qayd qilinib, 123.4-124.3 smni tashkil qilganligi aniqlandi.

Olib borilgan tajribalar natijalar tahliliga ko'ra o'simliklar bo'yining balandligi tuproqqa ishlov berilishiga bog'liq holda o'zgarib boradi. Tuproqqa nol ishlov berilganga nasbatan tuproq shudgorlanib urug'lar ekilganda o'simliklar bo'yi yuqori bo'lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. A. Nesmeyanova, A. V. Dedov, Bulletin of the Omsk State Agrarian University 1 (29), 35-42 (2018)
2. A. V. Dedov, M. A. Nesmeyanova, Agrochemical Bulletin 4, 7-9 (2012)
3. S.I. Smurov, G.S. Agafonov, O.V. Gapienko, Achievements of science and technology of agroindustrial complex 9, 11-14 (2008)
4. A. V. Dedov, M. A. Nesmeyanova, Binary crops - one of the directions of organic agriculture development in the Central Chernobyl Region, Proceedings of the conference "Actual problems of agronomy in modern Russia and ways of their solutions", 37-41 (2018)
5. H. Pung, P. L. Aird, S. Cross, The use of brassica green manure crops for soil improvement and soilborne disease management 3rd Australasian Soilborne Diseases Symposium 8-11 February 2004 (2005)